

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2025-yil 2-son

VOLUME 9 / ISSUE 2 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.2.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

Y. Yarmolik, Y. Mahmudov,
E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Nashriyot litsenziyasi

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 2025-yil 26-iyunda
bosmaxonaga topshirildi.
Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 5
Adadi: 100. Buyurtma: № 116.

Bosmaxona litsenziyasi

29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

I. Rustambekov – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

MAS‘UL MUHARRIR

O. Choriyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo‘limi boshlig‘i

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

A. Saidov – Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor (Toshkent, O‘zbekiston)

E. Juchniewicz – Gdansk universiteti professori, huquq doktori (Gdansk, Polsha)

A. Younas – yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Pekin, Xitoy)

O. Okyulov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Nematov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Sh. Asadov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Aminjonova – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Rahimov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

O. Narzullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

B. Murodov – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

A. Muxamedjanov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Niyazova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:

Е. Ярмолик, Й. Махмудов,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Ф. Мухаммадиева, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1385.

Издательская лицензия

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
26.06.2025.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 5. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 116.

Лицензия типографии

от 29.11.2023. № 174626

Отпечатано в типографии

Ташкентского государственного
юридического университета.

100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

И. Рустамбеков – доктор юридических наук, профессор, врио ректора Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

В. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

О. Чориев – начальник редакционно-издательского отдела Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

А. Саидов – доктор юридических наук, профессор, директор Национального центра по правам человека Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Э. Юхневич – доктор права, профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Юнас – доктор философии по юридическим наукам (Пекин, Китай)

О. Окюлов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ш. Асадов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Аминжонов – доктор юридических наук, доцент Правоохранительной академии Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Рахимов – доктор философии по юридическим наукам, доцент Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

О. Нарзуллаев – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

В. Муродов – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

А. Мухамеджанов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Н. Ниязова – кандидат педагогических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,
E. Mustafaev, K. Abduvalieva,
F. Mukhammadieva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

Publishing license

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 26.06.2025.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 5.

Units: 100. Order: № 116.

Printing house license

№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgokh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITOR-IN-CHIEF

I. Rustambekov – Acting Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

O. Choriev – Head of the Publishing Department of Tashkent State University of Law

MEMBERS OF EDITORIAL BOARD

A. Saidov – Director of the National Centre for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor (Tashkent, Uzbekistan)

E. Juchniewicz – Professor of the University of Gdansk, Doctor of Law (Gdansk, Poland)

A. Younas – Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Beijing, China)

O. Okyulov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Nematov – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Sh. Asadov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Aminjonova – Associate Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Rakhimov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

O. Narzullaev – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

B. Murodov – Professor of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

A. Muxamedjanov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

N. Niyazova – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 8 **MUXITDINOVA FIRYUZA ABDURASHIDOVNA**
Yangi O'zbekistonda huquqiy madaniyatni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 23 **RAXIMOV DILMURODJON G'ULOMJON O'G'LI**
Davlat xizmati instituti: tushunchasi, mohiyati va shakllanishi
- 35 **XOLIQOV SARVAR MINGISHOVICH**
Qurolli kuchlar harbiy xizmatchilarini uy-joy bilan ta'minlashning dolzarb masalalari: O'zbekiston va xalqaro tajriba
- 41 **USMONOV OTABEK ODILBEK O'G'LI**
Jamoatchilik nazoratini tashkiliy jihatdan raqamlashtirish va uning oldida turgan dolzarb muammolar
- 57 **ISMAILOV BEKJON SALIHOVICH**
Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqiy maqomi konsepsiyasi: huquqiy tahlili
- 65 **TULYAKOV ELDOR**
Korrupsiyaga qarshi kurashishda tahlil markazlarining roli: siyosatni tahlil qilishdan nazoratgacha

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 73 **RUZINAZAROV SHUXRAT NURALIYEVICH**
Elektron tijorat va logistika: huquqiy ta'minot masalalari
- 86 **NARZIYEV OTABEK SA'DIYEVICH, NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**
Xitoyda sun'iy intellekt va robot-maslahatchilar: tartibga solish xususiyatlari hamda o'ziga xos jihatlari
- 97 **MAHMUDXODJAYEVA UMIDA MUMINOVNA**
Voyaga yetmaganga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikning fuqarolik huquqiy masalalari
- 109 **INOYATOV NODIRBEK HAYITBOY O'G'LI**
"Vital" va "Sophiya" robotlari – raqamli davrda yangi huquq subyektlari sifatida

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 117 **ABDUSAMADOV DILMUROD FARXOD O'G'LI**
Iqtisodiy sud ishlarini yuritish prinsiplari: odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

- 127 **IBADOVA ANJELIKA ISMATULLOYEVNA**
Tan jarohatlari yetkazish jinoyatlarini tergov qilishda maxsus bilimlardan foydalanishning ahamiyati

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 137 **GAFUROVA NOZIMAXON ELDAROVNA, RAYIMOVA MUNISA NOZIM QIZI**
Sog'liqqa bo'lgan huquqning tamaki chekishga qarshi kurashishdagi roli: O'zbekiston va Avstraliyaning qiyosiy tajribasi

12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH. PROBATSIIYA FAOLİYATI

- 148 **XO'JAMBERDIYEV FARRUX KOMILOVICH, ABDUSAMATOVA ZARINA HASAN QIZI**
Fransuz jandarmeriya modeli jamoat xavfsizligi tizimining etaloni sifatida

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

8 МУХИТДИНОВА ФИРЮЗА АБДУРАШИДОВНА

Современные подходы к формированию правовой культуры в Новом Узбекистане

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

23 РАХИМОВ ДИЛМУРОДЖОН ГУЛОМЖОН УГЛИ

Институт государственной службы: понятие, сущность и формирование

35 ХОЛИКОВ САРВАР МИНГИШОВИЧ

Актуальные вопросы обеспечения жильём военнослужащих Вооружённых Сил: опыт Узбекистана и зарубежных стран

41 УСМАНОВ ОТАБЕК ОДИЛБЕК УГЛИ

Организационная цифровизация общественного контроля и её актуальные проблемы

57 ИСМАИЛОВ БЕКЖОН САЛИХОВИЧ

Концепция правового статуса лиц с инвалидностью: правовой анализ

65 ТУЛЯКОВ ЭЛЬДОР

Роль экспертно-аналитических центров в борьбе с коррупцией: от анализа политики до контроля

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

73 РУЗИНАЗАРОВ ШУХРАТ НУРАЛИЕВИЧ

Электронная коммерция и логистика: вопросы правового обеспечения

87 НАРЗИЕВ ОТАБЕК САЪДИЕВИЧ, НАБИРАЕВА ЗАРНИГОР АКМАЛОВНА

Искусственный интеллект и роботы-консультанты в Китае: характеристика и особенности регулирования

97 МАХМУДХОДЖАЕВА УМИДА МУМИНОВНА

Гражданско-правовые вопросы ответственности за вред, причинённый несовершеннолетнему

109 ИНОЯТОВ НОДИРБЕК ХАЙТБОЙ УГЛИ

Роботы Vital и Sophia как новые субъекты права в цифровую эпоху

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

117 АБДУСАМАДОВ ДИЛМУРОД ФАРХОД УГЛИ

Принципы ведения экономических судебных дел: осуществление правосудия исключительно судом

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА. ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКОЕ ПРАВО. СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

127 ИБАДОВА АНЖЕЛИКА ИСМАТУЛЛОЕВНА

Значение использования специальных знаний при расследовании преступлений, связанных с причинением телесных повреждений

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

137 ГАФУРОВА НОЗИМАХОН ЭЛЬДАРОВНА, РАЙИМОВА МУНИСА НОЗИМ КИЗИ

Роль права на здоровье в борьбе против табакокурения: сравнительный анализ опыта Узбекистана и Австралии

12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

148 ХУЖАМБЕРДИЕВ ФАРРУХ КОМИЛОВИЧ, АБДУСАМАТОВА ЗАРИНА ХАСАН КИЗИ

Французская модель жандармерии как эталон системы общественной безопасности

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

- 8 **MUKHITDINOVA FIRYUZA ABDURASHIDOVNA**
Modern approaches to the formation of legal culture in New Uzbekistan

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

- 23 **RAKHIMOV DILMURODJON GULOMJON UGLI**
Public service institution: concept, essence and formation
- 35 **KHOLIKOV SARVAR MINGISHOVICH**
Current issues of providing housing for armed forces personnel: Uzbekistan and international experience
- 41 **USMANOV OTABEK ODILBEK UGLI**
Digitalization of the organizational aspects of public oversight and the pressing challenges it faces
- 57 **ISMAILOV BEKJON SALIHOVICH**
The concept of the legal status of persons with disabilities: legal analysis
- 65 **TULYAKOV ELDOR**
The role of think tanks in combating corruption: from policy analysis to oversight

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 73 **RUZINAZAROV SHUKHRAT NURALIYEVICH**
E-commerce and logistics: legal support issues
- 86 **NARZIEV OTABEK SA'DIEVICH, NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**
Artificial intelligence and robo-advisors in China: characteristics and features of regulation
- 97 **MAHMUDKHODJAEVA UMIDA MUMINOVNA**
Civil law issues of liability for damage caused to a minor
- 109 **INOYATOV NODIRBEK HAYITBOY UGLI**
Vital and Sophia robots as new legal subjects in the digital age

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 117 **ABDUSAMADOV DILMUROD FARKHOD UGLI**
Principles of conducting economic court cases: justice is administered solely by the court

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

- 127 **IBADOVA ANGELIKA ISMATULLOYEVNA**
Importance of using special knowledge in investigating crimes involving bodily injuries

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

- 137 **GAFUROVA NOZIMAKHON ELDAROVNA, RAYIMOVA MUNISA NOZIM KIZI**
The role of the right to health in the fight against tobacco smoking: comparative analysis of the experience of Uzbekistan and Australia

12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY

- 148 **KHUJAMBERDIEV FARRUKH KOMILOVICH, ABDUSAMATOVA ZARINA KHASAN KIZI**
The french model of gendarmerie as a standard of public security system

Kelib tushgan / Получено / Received: 25.04.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 13.06.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 26.06.2025

DOI: 10.51788/tsul.rols.2025.9.2./SVZP6682

UDC: 347.168:355.1(045)(575.1)

QUROLLI KUCHLAR HARBIY XIZMATCHILARINI UY-JOY BILAN TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI: O'ZBEKISTON VA XALQARO TAJIRIBA

Xoliqov Sarvar Mingishovich,

O'zbekiston Respublikasi

Jamoat xavfsizligi universiteti

mustaqil izlanuvchisi,

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0009-0002-9549-3735

e-mail: sarvar_kholikov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada qurolli kuchlar harbiy xizmatchilarini uy-joy bilan ta'minlashning dolzarb masalalariga doir rivojlanish tendensiyalari, mavjud muammolar va jarayonlarni rivojlantirish istiqbollari hamda bu yo'nalishdagi chet el mamlakatlari tajribasi haqida so'z boradi. Xususan, maqolada O'zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchilarining uy-joy bilan ta'minlanishi, bu yo'nalishdagi mavjud qonunchilik normalari tahlili, milliy va xorijiy olimlarning fikr-mulohazalari bayon etilgan. Tadqiqotda harbiy xizmatchilarni uy-joy bilan ta'minlash borasidagi davlat dasturlari, imtiyozli ipoteka kreditlash mexanizmlari, xizmat turar joylari bilan ta'minlash, turar joy ijarasi kompensatsiyasi, idoraviy turar joy fondidagi uylarni xususiyashtirish kabi ijtimoiy imtiyozlar tahlil qilingan. Muallif tomonidan quyidagi asosiy muammolar aniqlangan: navbatdan tashqari uy-joy olish huquqiga ega bo'lgan harbiy xizmatchilar toifasining qonunchilikda aniq belgilanmaganligi, turli hududlar o'rtasidagi uy-joy maydoni hamda narxlaridagi tafovutlar, davlat tomonidan ajratiladigan moliyaviy resurslarning real ehtiyojlarga mos kelmasligi, ota-onalari bilan yashaydigan harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi masalasining mukammal hal etilmaganligi. Maqolada yagona elektron hisob tizimini joriy etish, imtiyozli kategoriyalar ro'yxatini qonunchilikda aniq belgilash, mavjud idoraviy uy-joy fondidan samarali foydalanish, moliyaviy ta'minot mexanizmlarini takomillashtirish kabi amaliy takliflar ilgari surilgan. Muallif tomonidan xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilib, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash va ularning ijtimoiy himoyalanganlik darajasini oshirish uchun davlat dasturlarining ahamiyati asoslangan.

Kalit so'zlar: Qurolli Kuchlar, Milliy gvardiya, mudofaa, harbiy xizmatchi, uy-joy fondi, davlat dasturi, davlat budjeti, subsidiya

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЖИЛЬЁМ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ ВООРУЖЁННЫХ СИЛ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

Холиков Сарвар Мингишович,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

самостоятельный соискатель Университета

общественной безопасности Республики Узбекистан

Аннотация. В настоящей статье рассматриваются актуальные вопросы обеспечения военнослужащих Вооружённых Сил жильём, тенденции развития, существующие проблемы и перспективы совершенствования данного направления, а также опыт зарубежных стран. В частности, анализируется законодательство Республики Узбекистан в сфере жилищного обеспечения военнослужащих, представлены мнения отечественных и зарубежных учёных. В исследовании рассматриваются вопросы касательно государственных программ, механизмов льготного ипотечного кредитования, предоставления служебного жилья, компенсации за аренду жилых помещений и приватизации ведомственного жилищного фонда. Автором выявлены ключевые проблемы: отсутствие чёткого законодательного определения категорий военнослужащих, имеющих право на внеочередное получение жилья; различия в стоимости и площади жилья по регионам; несоответствие государственных финансовых ресурсов реальным потребностям; нерешённость правового статуса военнослужащих, проживающих с родителями. В статье предложены практические меры, включая внедрение единой электронной системы учёта, законодательное закрепление перечня льготных категорий, эффективное использование ведомственного жилья, совершенствование финансовых механизмов. На основе изучения зарубежного опыта даны рекомендации по совершенствованию национального законодательства. Также обоснована значимость государственных программ для реализации конституционных прав военнослужащих и повышения уровня их социальной защищённости.

Ключевые слова: Вооружённые Силы, Национальная гвардия, оборона, военнослужащий, жилищный фонд, государственная программа, государственный бюджет, субсидия

CURRENT ISSUES OF PROVIDING HOUSING FOR ARMED FORCES PERSONNEL: UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL EXPERIENCE

Kholikov Sarvar Mingishovich,
Independent researcher at the University
of Public Safety of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. This article discusses trends in the development of current issues of housing provision for military personnel of the armed forces, prospects for the development of existing problems and processes, as well as the experience of foreign countries in this area. In particular, the article describes the provision of housing for military personnel of the Republic of Uzbekistan, an analysis of existing legislative norms in this area, and the opinions of domestic and foreign scientists. The study analyzed such social benefits as state programs for providing military personnel with housing, mechanisms for preferential mortgage lending, provision of official housing, compensation for rental housing, privatization of houses in the departmental housing stock. The author identified the following main problems: the lack of a clear definition in the legislation of the category of military personnel entitled to emergency housing, differences in housing space and prices between different regions, the mismatch of financial resources allocated by the state with real needs, and the incomplete solution of the issue of the legal status of military personnel living with their parents. The article puts forward such practical proposals as the introduction of a unified electronic accounting system, a clear definition of the list of preferential categories in legislation, the effective use of the existing departmental housing stock, and the improvement of financial support mechanisms. The author studied the experience of foreign countries and developed recommendations for improving national legislation. The importance of state programs for ensuring the constitutional rights of military personnel and increasing their level of social protection is also substantiated.

Keywords: Armed Forces, National Guard, defense, military personnel, housing fund, state program, state budget, subsidy

Kirish

Mamlakatimiz Konstitutsiyasi va qonunchiligida O'zbekistonda yashayotgan har qanday fuqaro turar joy daxlsizligi va erkin harakatlanish huquqiga ega ekanligi e'tirof etilgan [1]. Ushbu maqsadda fuqarolarning turar joyga mulkchilik huquqlarini ta'minlash, propiska masalalarini hal qilish va shu bilan bog'liq boshqa imtiyozlar bo'yicha keyingi yillarda ulkan ishlar amalga oshirildi.

Shular qatorida Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining ham uy-joy ta'minoti masalalari bo'yicha milliy harbiy qonunchilik asoslari ishlab chiqildi. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi Qonunda harbiy xizmatchilarning uy-joy bilan ta'minlanish huquqi qayd etilib, ularning oilalari uy-joy bilan bepul yoki imtiyozli ta'minlab kelinmoqda.

Maqolaning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarini uy-joy bilan ta'minlash tizimidagi mavjud muammolarni o'rganish, xalqaro tajribani tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Dolzarbligi esa harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyalanganlik darajasini oshirish, ularning xizmat samaradorligini ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish zaruratidan kelib chiqadi.

Material va metodlar

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, sotsiologik va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarini uy-joy bilan ta'minlash tizimi tanlangan bo'lsa, predmet sifatida ushbu sohadagi huquqiy munosabatlar o'rganildi.

Tadqiqot manbalari quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 14-sentabrda gi PQ-694-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilarini turar joy bilan ta'minlash tartibi to'g'risida"gi nizom; 2016–2021-yillarda qabul qilingan Prezident

qarorlari va farmonlari; Rossiya Federatsiyasi va boshqa xorijiy davlatlar tajribasi; shuningdek, huquqshunos olimlar – A.V. Zai-kin, G.G. Pashkova, Yu.O. Gavrilova, R. Razov, A.V. Chayev va V.A. Arxipovlarning ilmiy ishlari.

Amaliy materiallar sifatida 2017–2020-yillarda harbiy xizmatchilarga ajratilgan uy-joylarga oid statistik ma'lumotlar, Harbiy-texnik institut tasarrufidagi xizmat uylaridagi vaziyat tahlili hamda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarini uy-joy bilan ta'minlash amaliyoti o'rganildi.

Tadqiqot natijalari

Harbiy xizmatchilarni uy-joy bilan ta'minlash yo'nalishida amalga oshirilgan dasturlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu maqsadda uy-joy fondlari va oilaviy turar joylar kvartira tipiga moslab qayta rekonstruksiya qilinmoqda hamda dastur doirasida shahar va qishloqlarda yangi uylar qurilmoqda.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-noyabrdagi "2017–2020-yillarda shaharlarda ko'p qavatli arzon uy-joylar qurish va rekonstruksiya qilish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2660-sonli qarori asosida 4, 5 va 7 qavatli uylar qurilib, harbiy xizmatchilarga imtiyozli shartlarda topshirildi.

Shuningdek, ushbu qaror bilan Mudofaa vazirligining harbiy xizmatchilariga 3 yil imtiyozli davr, dastlabki 5 yil davomida 7 % stavkada, keyingi yillarda esa Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasida 20 yilgacha ipoteka kreditlari ajratilishi belgilandi. Ana shu kreditlar hisobiga 2017-yilda 56 ta, 2018-yilda 74 ta, 2019-yilda esa 116 ta ko'p qavatli uy foydalanishga topshirildi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi "2017–2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida"gi PQ-2639-sonli qaroriga binoan, shaharlarda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari uchun 5 qavatli ko'p kvartirali, 2 va 3 xonali uylar qurib berildi [3]. Xususan,

2020-yil yanvarda Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi “Bo’ston” mahallasida zamonaviy ko’p qavatli uylardagi 30 ta xonadon kalitlari tantanali ravishda topshirildi. Shuningdek, 2020-yilda Nukus va Qarshi shaharlarida yangi qurilgan uylar yordamida jami 60 nafar harbiy xizmatchi uy-joy bilan ta’minlandi.

Ushbu yo’nalishda harbiy xizmatchilarni xizmat turar joylari bilan ta’minlash, 25 % badal pulini to’lash orqali uzoq muddatli ipoteka krediti ajratish, uy-joy o’rniga yer uchastkasi ajratish, turar joy ijara shartnomalari bo’yicha ijara haqini kompensatsiya qilish hamda idoraviy turar joy fondidagi uylarni xususiy lashtirish kabi shakllarda ijtimoiy imtiyozlar taqdim etilmoqda. Biroq mazkur imtiyozlardan foydalanishning eng muhim sharti – harbiy xizmatchilar uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj ekanligi rasmiy ravishda tan olinishi zarur. Shu borada milliy mentalitet va amaliyot o’rtasida ayrim farqlar mavjud bo’lib, ularni amaliy misollar orqali ko’rib chiqamiz.

Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 14-sentabrdagi PQ-694-son qarori bilan tasdiqlangan “O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilarini turar joy bilan ta’minlash tartibi to’g’risida”gi nizomda “ota-onasining uyida ijtimoiy norma talablariga muvofiq yashaydigan harbiy xizmatchilar uy-joyga muhtojlar kategoriyasiga kirmaydi” degan qoida mavjud.

Ammo, bizning fikrimizcha, ota-onasining uyida yashasa-da, lekin, aksincha, ularni o’z ta’minotiga olgan harbiy xizmatchilarimiz mavjud. Ayniqsa, ota-ona nogiron, og’ir kasallar yoki o’zgarlar parvarishiga muhtoj toifa qariyalari bor bo’lsa, bizningcha, “ularni o’z parvarishiga olgan harbiy xizmatchilar bundan mustasno”, deb qo’shimcha kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tadqiqot natijalari tahlili

Harbiy qismlarda uy-joy sharoitlarini yaxshilash huquqiga ega deb topiladigan harbiy xizmatchilar ro’yxati harbiy qism (muassasa) larning uy-joy xizmati bo’limlari tomonidan yuritiladi. Ro’yxatga kiritilgan vaqtiga qarab

harbiy xizmatchilar uy-joy olishga navbat asosida qo’yiladi va harbiy xizmatchilarga uy-joy attestati (ikki nusxada) yozib beriladi.

Ammo qonunchilikda ayrim istisno qoidalar mavjud bo’lib, ular munozarali savollarni yuzaga keltiradi. Masalan, “O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilarini turar joy bilan ta’minlash tartibi to’g’risida”gi nizomning 11-bandida: “qonunchilikda belgilangan alohida toifa harbiy xizmatchilar navbatdan tashqari uy-joy olish huquqiga ega” degan qoida bor. Lekin ular “kim”lar ekanligi oydinlashtirilmagan.

Idoraviy hujjatlarda ham navbatdan tashqari uy-joy oladiganlar ro’yxati yo’q. Amaldagi kvartira taqsimoti manzarasi esa e’tiborni tortmasdan qolmaydi. Masalan, uy-joy maydonining ijtimoiy me’yorlariga amal qilinmaganligi holatlari yoki “unvon”i yuqori bo’lganlarga “xaridorgir kvartiralar” berilganligi ham haqiqat. Kvartiralar maydoni, ajratilgan to’lovlar bo’yicha viloyatlar va Toshkent shahri o’rtasidagi farq katta. Bu holat uy-joy dastlabki badali uchun ajratiladigan summalarda farq kelib chiqadi. Masalan, Toshkent shahridagi 2 xonali kvartiralar o’rtacha 47,2 m² – 67,5 m² atrofida, 3 xonali 73,8 m², 4 xonalisi 103,1 m² – 121,9 m² atrofida sotilgan bo’lsa, viloyatlardagi 2 xonalilar 41,60 m² dan 42,75 m² gacha, 3 xonalilar esa o’rtacha standart 52 m² qilib qurilgan. Viloyatlardagi uy-joylarda 4 xonali kvartiralarining o’zi deyarli mavjud emas.

Viloyatlar va Toshkent shahrida ipoteka krediti orqali sotib olinadigan uy-joyning eng ko’p maydoni 70 kvadrat metr etib belgilandi. Shunga mos ravishda davlat budjetidan ajratiladigan subsidiyalar qishloqlarda qurilgan uylar uchun 315 mln, shaharlarda 364 mln va Toshkent shahri uchun qiymati 399 mln qilib o’rnatilgan edi. Hozirgi kunda bu summalar uy-joy qiymatidan kelib chiqib yanada oshmoqda.

Huquqshunos olim A.V. Zaikin uy-joy maydoni va hududdan kelib chiqib, mablag’

taqsimotini to'g'ri belgilash muhim, deb ta'kidlagan edi [4].

Pul to'lovlari borasida ham o'ziga xos moliyaviy hamda tashkiliy-huquqiy masalalar mavjud. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilarini turar joy bilan ta'minlash tartibi to'g'risida"gi nizomning 190-bandida quyidagi imtiyoz nazarda tutilgan edi: "vazirlik tomonidan uy-joy bilan ta'minlanmagan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarga, ularning arizasiga binoan, taqdim etilayotgan uy-joy umumiy qiymatining 25 foizdan 50 foizgacha bo'lgan miqdordagi dastlabki badal puli davlat budjeti mablag'lari yoki qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan to'lanadi".

Biroq ushbu norma amaliyotda to'liq ishlamadi. 2021-yil avgust oyidan esa yangi tartib joriy etilib, unga muvofiq, uy-joy maydoni hamda qiymatining eng ko'p miqdori uchun chegara qayta belgilandi.

Huquqshunos olim G.G. Pashkovaning ta'kidlashicha, Rossiyada ham joriy qilinayotgan imtiyozlar ko'pincha real holatlarga mos kelmagani sababli amaliyotda to'liq amalga oshmay qolish xavfi mavjud. Muallif "Faxriylar to'g'risida"gi Qonunga murojaat qilgan holda, 32 millionlik kontingent uchun 140 milliard mablag' ajratilishi zarur bo'lgan bir vaqtda, amalda atigi 6,5 milliard moliyalashtirilganini imtiyozlarning iqtisodiy asoslanmagan holda joriy etilishi bilan izohlaydi [5; 6]. Bunday muammolarni hal etishda kelgusida ishlarni tizimli asosda tashkil etish, qat'iy elektron ro'yxatlar shakllantirish, yagona axborot bazasini joriy qilish va mavjud moliyaviy imkoniyatlarning real prognozidan kelib chiqib qarorlar qabul qilish lozimligi taklif etiladi.

Huquqshunos olim Yu.O. Gavrilova ham Rossiya Federatsiyasida harbiy xizmatchilarning xizmat turar joy bilan ta'minlanish huquqlari muntazam ravishda buzilib kelayotganini ta'kidlab, xizmat turar joylariga oid huquqiy asoslarni chuqur va puxta ishlab chiqish zarurligini alohida qayd etadi [7].

Rossiya olimlaridan R. Razov, A. Chayev va V. Arxipov ushbu masalani tahlil qilib, Rossiya Qurolli Kuchlarida 122 ming harbiy xizmatchilar va ularning oilalari uy-joyga muhtojligi, 40 % tarkib mavjud uy-joy sharoitlaridan qoniqmayotganligini tahliliy ma'lumotlarda keltirishgan [8].

Xulosalar

AQShda 2023-yilda Hisobot palatasi (GAO) tomonidan o'tkazilgan tahlillarning ko'rsatishicha, davlat-xususiy sheriklik asosida 32 milliard dollarlik harbiy uy-joy dasturlari amalga oshirilgan bo'lib, bu mexanizm soliqlardan ozod obligatsiyalar va turar joy puli (BAH) orqali moliyalashtiriladi. Bunday tizim harbiy xizmatchilarning huquqlarini himoya qiluvchi maxsus qonunchilik bazasiga tayanadi [9]. Aslida, turar joy bilan ta'minlash nafaqat xorijda, balki O'zbekistonda allaqachon dolzarb ijtimoiy muammolardan biriga aylanib bo'lgan. Masalan, budjetdan qo'shimcha mablag' talab qilmaydigan mavjud idoraviy uy-joy fondidan ham maqsadga muvofiq foydalanish lozim. Bundan tashqari, "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilarini turar joy bilan ta'minlash tartibi to'g'risida"gi nizomning 11-bandiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib, "navbatdan tashqari uy-joy olish huquqiga ega bo'lgan toifadagi harbiy xizmatchilar ro'yxati"ni aniq ishlab chiqish va belgilash zarur, deb hisoblaymiz. Bu bilan turli tushunmovchilik, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi, huquq buzilishlari ehtimolining oldini olgan bo'lamiz.

Zero, O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev uy-joy ta'minoti bundan buyon ham eng muhim ijtimoiy masalalar sifatida turishini qayd etib, ushbu yo'nalishdagi dasturlarni amalga oshirish natijasida 140 mingdan ziyod yangi kvartira va yakka tartibdagi uylar qurilgani, ushbu ko'rsatkich oldingi 5 yilga nisbatan 10 barobar ko'pligi, keyingi besh yillikda 1 mln.dan ortiq aholi uchun qulay infrazuzilmaga ega "Yangi O'zbekiston" massivlari barpo etish, "Obod qishloq", "Obod mahalla"

dasturlari izchil davom ettirilishini ta'kidlab o'tdi [10].

Qozog'istonda 2020-yildan boshlab amalga oshirilayotgan "Əskeri baspana" dasturi harbiy xizmatchilar uchun yangi mexanizm joriy qildi. Ushbu tizimda uy-joy xarid qilish uchun kamida 15 foizlik dastlabki baddal (jamg'arma) talab etiladi. Mazkur tajriba Rossiyada amalda bo'lgan an'anaviy "накопительно-ипотечная" tizimidan farq

qilib, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan model sifatida baholanmoqda [11].

Shu tajribadan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibidagi vazirlik va idoralar tizimida ham harbiy xizmatchilarning uy-joy bilan ta'minlanishini zamonaviy, iqtisodiy asoslangan mexanizmlar orqali isloh qilish rejalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

REFERENCES

1. Constitution of The Republic Of Uzbekistan. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2023, p. 40.
2. Jo'rayev Q. Vatan himoyasi har bir fuqaroning muqaddas burchidir [Defense of the homeland is the sacred duty of every citizen.]. Available at: www.parliament.gov.uz
3. Bulletin of the House of Commons of the Republic of Uzbekistan. 2016, vol. 10, act 337.
4. Zaikin A.V. Pravovoye regulirovaniye ipotechnoy sistemy zhilishchnogo obespecheniya voyennosluzhashchikh [Legal regulation of the mortgage system of housing provision for military personnel]. Moscow, 2007, p.11.
5. Pashkova G.G. L'goty v prave sotsial'nogo obespecheniya [Benefits in social security law]. Tomsk, 2004, p. 3.
6. "On the appointment and organization of the work of a working group to study the living and family conditions of military personnel and citizens living in service house No. 1 owned by the Military-Technical Institute". Order No. 454 of the Head of the Military-Technical Institute dated August 23, 2019
7. Gavrilova YU.O. Prava voyennosluzhashchikh, prokhodyashchikh voyennuyu sluzhbu po kontraktu, na sluzhebnyye zhilye pomeshcheniya [Rights of military personnel serving under contract to service housing]. Moscow, 2005, p. 2.
8. Razov R., Chayev A.V., Arkhipov V.A. Sovremennoye sostoyaniye sotsial'noy zashchity voyennosluzhashchikh VS RF [Current state of social protection of military personnel of the RF Armed Forces]. *Service Plus Scientific Journal*, 2012, vol. 1, p. 84.
9. U.S. Government Accountability Office. Military Housing: DOD Should Take Additional Steps to Improve Its Oversight of Privatized Housing. GAO-23-105866. Washington D.C, 2023, pp. 1–45.
10. We will resolutely continue the path of democratic reforms based on the New Uzbekistan Development Strategy. Speech by the newly elected President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev at the joint session of the Oliy Majlis dedicated to the solemn ceremony of taking office. *New Uzbekistan Socio-political Newspaper*, 2021, vol. 223, p. 479.
11. Data from Zhilstroyserbank and Otsya Bank of the Republic of Kazakhstan. Report on the "Military Housing" program for 2020–2023. Available at: www.otbasybank.kz
12. On the provision of housing to military personnel: Decree No. 370. Government of the Russian Federation, 2010. Available at: <http://government.ru/docs/10839/>
13. State housing certificate programme for military personnel. Ministry of Defence of the Russian Federation, 2022. Available at: https://mil.ru/housing_program/
14. Adequate housing as a component of the right to an adequate standard of living. A/HRC/25/54. United Nations Human Rights Council, 2014. Available at: <https://undocs.org/en/A/HRC/25/54/>
15. Ivanov S.P. Legal mechanisms for implementing the right to housing for military personnel in the Russian Federation. *Journal of Military Law and Security*, 2021, vol. 8(2), pp. 45–57.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2025-yil 2-son

VOLUME 9 / ISSUE 2 / 2025
DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.2.